



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

THE STATE COMMITTEE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON STATISTICS

100170, Toshkent sh., Mustaqillik shoh ko‘chasi, 63-uy Tel.: +998 (71) 202-81-52; Fax: +998 (71) 202-80-22;
www.stat.uz; e-mail: info@stat.uz; stat@exat.uz

2021-yil 30 sentabr

№ 01/1-01-17-148

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga

Nusxasi: “Taraqqiyot strategiyasi”
markaziga

“Yuksalish” umummilliy
harakatiga

Davlat statistika qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab – quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-son Farmoni ijrosi yuzasidan ma’lumotlari ilovaga muvofiq yuborilmoqda.

Ilova: *elektron ko‘rinishda.*

30.09.2021

X

Rais

B. Begalov

Подписано: БЕГАЛОВ БАХОДИР АБДУСАЛОМОВИЧ

Ijrochi: F. Berdibayev

Tel.: (71) 202-81-77

**2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha
Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da
amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosi yuzasidan**

MA’LUMOT

(2021 yil 30 sentabr holatiga)

T/r	Amalga oshiriladigan tadbir	Bajarish muddati	Ijro uchun mas’ullar	Sarf-xarajat-lar	Moliyalash-tirish manbalari	Hujjat shakli, amalga oshirish mexanizmi, kutilayotgan natija	Bajarilgan ishlar, tayyorlangan hujjat loyihasi
I. DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI							
1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.							
13.	Davlat organlarining ochiqlik va oshkoralikni ta’minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish	2021- yil 1- aprel	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Moliya vazirligi, Axborot texnologiyalari vazirligi, Davlat statistika qo‘mitasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	-	-	Normativ-huquqiy hujjat loyihalari. Loyihalarda: Ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar ro‘yxatini kengaytirish; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ochiqligi konsepsiyasini ishlab chiqish; har yil yakunlari bo‘yicha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining Ochiqlik indeksini aniqlash; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan o‘z veb-saytlariga joylashtiriladigan axborotni yangilab borish davriyligi muddatini qayta ko‘rib chiqish; ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to‘g‘risida axborot olishga doir, shuningdek, mansabdor shaxslarning intervyusini tashkil etish to‘g‘risidagi so‘rovini ko‘rib	Bajarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-sonli Farmoniga ilovaning 13-bandida belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan qo‘shimcha ravishda 39 ta vazirlik, idoralar va tashkilotlarning 240 ta ochiq ma’lumotlarini kengaytirish bo‘yicha takliflari asosida shakllantirilgan ro‘yxat bo‘yicha tegishli ochiq ma’lumotlar to‘plamlarini davriyligi va joylashtirish muddatlarini belgilangan tartibda ko‘rib chiqishingizni va joriy yilning 23-fevraliga qadar Davlat statistika qo‘mitasiga taqdim etishini so‘rab 39 ta vazirlik va idoralarga xat (2021-yil 15-fevraldagi 01/1-24-12-18-sonli xat) yo‘llandi. Mazkur band ijrosi bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda.

					<p>chiqishga doir muddatlarni maqbullashtirish;</p> <p>“Ochiq va hisobdor hukumat” g’oyasini amalga oshirishga qaratilgan amaliy choralar ko’rish nazarda tutiladi.</p>	<p>Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan tegishli vazirlik va idoralarga yuborilgan yuqoridagi xatlar ijrosi natijasida 2021- yilning 23-martida Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Ochiq ma’lumotlar portalida e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ochiq ma’lumotlar to‘plamlari ro‘yxati shakllantirildi va belgilangan tartibda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasiga 01/1-19-09/1-24-sonli xat orqali tasdiqlash uchun kiritildi.</p> <p>Shu bilan birga, Davlat statistika qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2021-yil 23-martdagi 01-07/2067-sonli xatiga muvofiq, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ochiqligi konsepsiyasi loyihasiga kiritish uchun joriy yilning 26 mart kuni 01/1-19-09/1-26-sonli xat orqali o‘z takliflarini yubordi.</p> <p>Joriy yilning 2-aprel kuni o‘tkazilgan (2021-yil 19-aprelda 01-08/1-2190-son bilan tasdiqlangan) “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasi yig‘ilishining 2-son bayoni 7-ilovasiga muvofiq, Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Ochiq ma’lumotlar portalida e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ochiq ma’lumotlar to‘plamlari ro‘yxati tasdiqlandi.</p>
--	--	--	--	--	---	---

III. Iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

3.5. Bank tizimini isloh qilishni davom ettirish va bank sohasida raqobat muhitini yaratish, aholi va xo‘jalik subyektlariga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini oshirish, tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishni qo‘llab quvvatlash, zamonaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish

65.	Nobank va boshqa moliyaviy tashkilotlar sharhini shakllantirish bo'yicha statistik hisobotlarni yuritish qoidalarini ishlab chiqish.	2021- yil 1- may	Markaziy bank, Moliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi, Adliya vazirligi	-	-	<p>Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. Bunda: “Nobank va boshqa moliyaviy tashkilotlar sharhi”ni Xalqaro valyuta jamg'armasining me'yorlari asosida ishlab chiqish; sug'urta, lizing va boshqa bank faoliyati bilan shug'ullanmaydigan moliyaviy tashkilotlar tomonidan Markaziy bankka tegishli statistik hisobot taqdim etilishini ko'zda tutish; Markaziy bank tomonidan shakllantirib kelinayotgan pul-kredit sharhlari bilan birgalikda “Moliya tizimi sharhi”ni yuritishning yo'lga qo'yilishini hamda respublika bank-moliya tizimi statistikasining yagona xalqaro formatda to'liq qamrab olinishini ta'minlash; moliya tizimini ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, foydalanuvchilar, xususan, xalqaro ekspertlar, moliyaviy institutlar va investorlar uchun mamlakat moliya tizimini kuzatish va tahlil qilib borish imkonini yaratish.</p>	<p>Bajarilgan. Mazkur yo'nalish bevosita Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Shu o'rinda, Hukumat va boshqa nazorat organlariga mazkur band ijrosi bo'yicha axborot (asoslovchi hujjatlari bilan birga) to'g'ridan-to'g'ri Markaziy bank tomonidan taqdim etib boriladi. Shuningdek, mazkur bandning 1-2-qismlari bo'yicha Markaziy bank tomonidan “Nobank va boshqa moliyaviy tashkilotlar sharhi”ni shakllantirish va “Sug'urta, lizing va boshqa bank faoliyati bilan shug'ullanmaydigan moliyaviy tashkilotlar tomonidan Markaziy bankka tegishli statistik hisobot taqdim etilishini ko'zda tutish” bo'yicha hujjat loyihasini ishlab chiqishda Markaziy bank so'roviga asosan ishtirok etiladi. Markaziy bankning 2021-yil 7-apreldagi 11-09/114-son xatiga asosan, Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan “Nobank va boshqa moliyaviy tashkilotlar sharhini shakllantirish bo'yicha statistik hisobotlarni yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi ID-36762 (V-1) Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi belgilangan tartibda ko'rib chiqilib, Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi (project.gov.uz) orqali kelishildi.</p>
3.7. Hudud, tuman va shaharlarni kompleks rivojlantirish, mustahkam va barqaror zamonaviy ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish							
79.	Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy	Yil	Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi, Markaziy	-	-	Amaliy chora-tadbirlar dasturi.	Bajarilgan. O'zbekiston Respublikasi

	rivojlantirishni reyting baholash borasida tizimli monitoring o'rnatish va nazoratini amalga oshirish hamda takomillashtirish.	davomida	bank, tijorat banklari, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat statistika qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi			Bunda: Hudularning, shu jumladan tuman (shahar)larni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish holatini tegishli ko'rsatkichlar asosida chuqur tahlil qilib borish; har oy barcha tuman va shahar hokimlarining amaliy chora-tadbirlar dasturi va ulardagi maqsadli ko'rsatkichlar ijrosining Bosh vazir rahbarligida kengaytirilgan videoselektor o'tkazgan holda muhokama qilinishini tashkil etish nazarda tutilgan.	Prezidentning 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702-son qaroriga muvofiq, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash indikatorlari tasdiqlangan. Mazkur indikatorlar bo'yicha Qo'mita tomonidan tegishliligi bo'yicha statistik ko'rsatkichlar shakllantirilib Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni kishqartirish vazirligiga rasmiy xatlar (08.06.2020-y. 01/2-02-17/2-128-son, 15.06.2020-y. 01/2-02-17/2-140-son, 03.08.2020-y. 01/2-02-17/2-191-son, 28.08.2020-y. 01/3-02-17/2-284-son, 22.10.2020-y. 01/2-02-17/2-273-son) bilan bir necha bor ma'lumotlar taqdim etilgan. Qaror ijrosi bo'yicha tegishli ishlar hozirgi davrda ham doimiy ravishda olib borilmoqda. Xususan, Qo'mita tomonidan tegishli statistik ko'rsatkichlar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni rivojlantirish vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan internet tarmog'idagi "RATING" axborot tizimiga belgilangan muddatlarda kiritilib borilmoqda. Jumladan, reyting baholash tizimida ko'zda tutilgan Davlat statistika qo'mitasi vakolati doirasida 2020- yilning yanvar-dekabr davri uchun shakllantirilgan statistik ko'rsatkichlar "RATING" axborot tizimiga to'liq kiritildi.
3.10. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xorijiy investorlarni qo'llab-quvvatlash va huquqiy himoya qilish							
107.	Tarmoqlar va hududlarga jalb	2021- yil	Investitsiyalar va tashqi savdo	-	-	Metodologik loyihasi.	Bajarilgan. Tarmoqlar va hududlarga jalb

	<p>qilingan va o'zlashtirilgan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar va kreditlarning davlat statistik hisobotlarida aks ettirilishi bo'yicha xorijiy tajribani, jumladan, UNCTAD tavsiyalarini o'rgangan holda yagona hisobot shakllari va ularni joriy qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.</p>	<p>1- iyul</p>	<p>vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank, vazirlik va idoralar</p>			<p>Bunda: Hujjat loyihasida tarmoqlar va hududlarga jalb qilingan hamda o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarning davlat statistik hisobotlarida aks ettirilishi bo'yicha xorijiy tajribani, jumladan, UNCTAD tavsiyalarini o'rgangan holda, yagona hisobot shakllari ishlab chiqiladi va ularni joriy qilish bo'yicha tegishli choralarni ko'rish nazarda tutiladi.</p>	<p>qilingan va o'zlashtirilgan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar va kreditlarning davlat statistik hisobotlarida aks ettirilishi bo'yicha xorijiy tajribani, jumladan, UNCTAD tavsiyalarini o'rgangan holda yagona hisobot shakllari va ularni joriy qilish bo'yicha takliflarini bajarish maqsadida ishchi guruh tarixida ishtirok etish uchun Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Investitsiya va qurilish masalalari bo'yicha rivojlanishning maqsadli dasturlari indikatorlari va tahliliy axborotlarni shakllantirish bo'limi boshlig'i Saipov Javlon Baxromovich nomzodi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga qo'mitaning 2021-yil 25-fevraldagi 01/4-08-16/2-16-son xati orqali ma'lum qilindi.</p> <p>birinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat statistikasi to'g'risida"gi qonuniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi davlat statistikasi vakolatli organidir va u yagona statistika uslubiyatini va davlat statistika kuzatuvlarining shakllarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi hamda amaliyotga joriy etadi. Boshqarma tomonidan investitsiya faoliyati, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar quyidagi uslubiyatlar asosida shakllantiriladi:</p> <p>1. To'lov balansi va xalqaro investitsiya holati bo'yicha qo'llanmalar.</p>
--	---	----------------	--	--	--	--	--

						<p>Oltinchi nashr (RPB-6) Xalqaro valyuta jamg'armasi, 2012- y.</p> <p>(https://www.imf.org/external/russian/pubs/ft/bop/2007/bopman6r.pdf);</p> <p>2. Milliy hisoblar tizimi 2008-y. Yevropa komissiyasi, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Birlashgan millatlar tashkiloti, Jahon banki, 2012-y. (https://unstats.un.org/unsd/nationalaccount/docs/SNA2008Russian.pdf);</p> <p>3. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining 2019-yilning 28-iyunida 34-son qarori bilan tasdiqlangan "Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom" (https://lib.stat.uz/ru/features-3/investitsii-i-stroitelstva/291-metodicheskie-polozheniya-po-formirovaniyu-obshchego-ob-ema-investitsij-v-nefinansovye-aktivy);</p> <p>ikkinchidan, Yuqorida keltirilgan uslubiyatlar hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlari tomonidan berilgan tavsiyalar asosida shakllantirilgan statistik ko'rsatkichlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi ko'rsatkichlari Davlat statistika qo'mitasining Kengaytirilgan ma'lumotlarni tarqatish umumiy tizimi hamda Xalqaro valyuta jamg'armasining Yig'ma ma'lumotlar milliy sahifasida joylashtirib kelinmoqda. Mazkur ko'rsatkichlar xalqaro tashkilotlar tomonidan xalqaro</p>
--	--	--	--	--	--	---

						<p>taqqoslashlarda keng foydalaniladi;</p> <p>uchinchidan, shuni ham ma'lum qilamizki, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun etalon ta'rifi"ning to'rtinchi nashri, Savdo va rivojlanish bo'yicha BMT konferensiyasining (UNCTAD) "Jahon investitsiyalari to'plami", shuningdek, "Yevropa hamjamiyatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni statistik hisobini yuritish tajribasi" nomli qo'llanmalar o'rganib chiqildi;</p> <p>to'rtinchidan, Savdo va rivojlanish bo'yicha BMT konferensiyasining (UNCTAD) "Jahon investitsiyalari to'plami"da to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning global va hududlar miqyosidagi yo'nalishlari tahlili keltirilgan;</p> <p>beshinchidan, "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun etalon ta'rifi" va "Yevropa hamjamiyatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni statistik hisobini yuritish tajribasi" nomli qo'llanmalarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga oid tushunchalar va ularni hisoblash mexanizmlari keltirilgan bo'lib, ular "To'lov balansi va xalqaro investitsiya holati bo'yicha yo'riqnoma" (RPB-6) va Milliy hisoblar tizimida keltirilgan tushuncha va tamoyillarga to'liq mos keladi;</p> <p>oltinchidan, "Davlat statistikasi to'g'risida"gi qonunining 51 - moddasiga asosan yagona statistik uslubiyatni ishlab chiqish, tasdiqlash</p>
--	--	--	--	--	--	--

							<p>va joriy etish Davlat statistika qo'mitasining vakolatiga kirishidan kelib chiqib, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hisobi "To'lov balansi va xalqaro investitsiya holati bo'yicha yo'riqnoma" (RPB-6) va "Milliy hisoblar tizimi-2008"da keltirilgan tushuncha va tamoyillar asosida olib borilishini inobatga olgan holda, ushbu Uslubiy ko'rsatmalarni tasdiqlanishiga zaruriyat yo'q deb hisoblaymiz.</p> <p>Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 30- iyundagi 24- son qarori bilan Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqilib tasdiqlanganligini ma'lum qilamiz. Ushbu uslubiy qo'llanma asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'rsatkichlarining statistik hisobini sifatli yuritish hamda mazkur investitsiyalar to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni shakllantirish tartibini belgilab beradi.</p> <p>Qo'llanmani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasining investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlari, Milliy hisoblar tizimi-2008, Xalqaro investitsiya holati va to'lov balansi bo'yicha yo'riqnoma ta'riflaridan foydalanildi.</p>
108.	2021- yilda 23 mlrd dollar	Yil	Investitsiyalar va tashqi savdo	-	-	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda:	Bajarilmoqda.

qiyamatidagi investitsiyalarni o'zlashtirish hamda 226 ta yirik sanoat va infratuzilma obyektlarini ishga tushirish.	davomida	vazirligi, Qurilish vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, tashabbuskor idoralar (vazirlik, idora va xo'jalik boshqaruvi organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari)				2021-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturi doirasida loyihalarning tarmoq jadvalarini tasdiqlash, loyiha oldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish, qurilish-montaj ishlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish chora-tadbirlari; 2021-yilda amalga oshirilayotgan, jumladan, ishga tushirish belgilangan jami 226 ta yirik investitsiya loyihalarini Idoralararo ishchi guruhi bilan birgalikda tasdiqlangan Grafikka asosan joylarga chiqqan holda o'rganish va o'rganish yakunlari bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash nazarda tutiladi.	2021-yil uchun Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni: 1. Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, 2021-yilning 21-aprelida belgilangan tartibda 2021-yil yanvar-mart holatiga byulletenlar shaklidagi statistik ma'lumotlarni tashqi foydalanuvchilarga taqdim etildi. 2. Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, 2021-yilning 21-iyulida belgilangan tartibda 2021-yil yanvar-iyun holatiga byulletenlar shaklidagi statistik ma'lumotlarni tashqi foydalanuvchilarga taqdim etildi.
--	----------	---	--	--	--	---	--

3.16. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish

145.	Aholining minimal iste'mol xarajatlarini e'lon qilish amaliyotini yo'lga qo'yish.	2021- yil 1- mart	Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, vazirlik va idoralar.	-	-	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: aholining minimal iste'mol harakatlarini e'lon qilish amaliyotini yo'lga qo'yish; ushbu ko'rsatkichlardan ijtimoiy siyosatni yuritishda samarali instrument sifatida foydalanish; ijtimoiy kafolatlarni bir tizimga keltirilgan holda, ularni minimal me'yorlar darajasida bosqichma-bosqich ta'minlash bo'yicha maxsus dasturni tasdiqlash nazarda tutiladi.	Bajarilgan. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga 2021- yil 10- fevralda 01/4-13-17/2-16-sonli xat yuborildi. Shuningdek, Aholining minimal iste'mol xarajatlarini hisoblashda foydalaniladigan 2019-2020- yillar uchun uy xo'jaligi tanlanma kuzatuv ma'lumotlari, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga taqdim etildi. 2021- yil 4- martda (№ 02/13-03-6/6) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan yagona elektron tizim (project.gov.uz) orqali O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash
------	--	-------------------	---	---	---	---	---

							tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi qarori (ID-raqami – ID-30318 (V-1)) loyihasi tegishli bandlari bo'yicha xulosa va takliflar 2021- yil yil 9- martda yagona elektron tizim (project.gov.uz) orqali taqdim etildi.
--	--	--	--	--	--	--	--